



## GEODEZIK PUNKTLARINI RAQAMLASHTIRISH VA OBYEKTLARNI MAZKUR PUNKTLARGA BOG'LASH

Karimova Shaxnoza Axmed kizi

Urganch Davlat universiteti

Geodeziya kartografiya va kadastr yo'nalishi talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p2-56>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> February 2023

Accepted: 11<sup>th</sup> February 2023

Online: 12<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

*Geodezik tayanch shaxobchalar, planli tayanch punkt, absolyut balandlig, navigator.*

### ABSTRACT

*Yer yuzasini o'rganish, o'zlashtirish hamda yer yuzasini injenerlik inshootlarini barpo qilish bilan shug'ullanadigan barcha mutaxassislar uchun topografik karta ko'z bo'lib xizmat qilsa davlat geodezik punktlari tayanch asosi sifatida yuritiladi. Shu geodezik punktlardan to'g'ri foydalanishning ijobiy tomonlari haqida bayon etilgan.*

Joyda o'rni uzoq vaqt saqlanadigan qilib maxsus qurilma yoki mustahkam qoziq bilan belgilangan va planli koordinatasi yoki absolyut balandligi aniqlangan nuqtaga geodezik tayanch punkt deyiladi.

Bunday nuqtalar yig'indisi geodezik tayanch shaxobchalarni tashkil etadi. Planli koordinatasi ma'lum bo'lgan tayanch punktga, planli tayanch punkt, absolyut balandligi ma'lum bo'lgan tayanch punktga esa balandlik tayanch punkt deyiladi. Shunga yarasha geodezik tayanch shaxobchalarga bo'linadi.

Geodezik tayanch shaxobchalari, davlat geodezik tayanch shaxobchalari, maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari va plan olish tayanch shaxobchalariga bo'linadi. Davlat geodezik tayanch shaxobchalari maxsus programma asosida barpo qilinadi va barcha masshtabdagi planlarni olishda tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligi va mudofasiga turli ilmiy va texnikaga doir masalalarni yechishda ham davlat geodezik tayanch shaxobchalariga asoslanadi. Bugungi kunda davlat geodezik punktlarining aksariyat qisimlari nosoz xolga kelib qolganligiga ko'zimiz tushadi. Bu albatta, soha mutaxassislari va foydalanuvchilar uchun bir muncha qiyinchilik tug'diradi.



(1-rasm).

1-rasmda keltirilgan xolatni ko'radigan bo'lsak, respublikamizning chekka joylarida davlat geodezik punktlari nosoz ta'mirtalab bo'lib qolganligi sababli injenerlik geodeziyasi masalalarini yechishda va joylarda geodezik ishlarni bog'lashda nosoz xolga kelib qolgan punktlar birqancha noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Shu sababli davlat geodezik punktlarini raqamlashtirish va yaratilayotgan ob'yektlarni raqamli punktlarga bog'lash masalalarini ko'rib chiqamiz.



2-rasm

Ish boshida nosoz holga kelib qolgan davlat geodezik punktlarining koordinatalarini zamonaviy asboblardan yordamida aniqlab olish kerak bo'ladi. Buning uchun 2-rasmda keltirilgan xolatdagi nosoz punkt ustiga 2 chastotali, yuqoriligi aniq bulgan navigator o'ta yuqori aniqlik bilan o'rnatiladi. O'rnatilgan navigator sun'iy yo'ldoshlar bilan bog'lanish imkoniyati ko'rib chiqiladi va tegishli bo'lgan joyning koordinatalarini aniqlash jarayoni boshlanadi. Navigator mazkur o'rnatilgan punktda joyga qarab 3 soatdan 8 soat oralig'ida davom etadi (3-rasm). S'yomka ishlari tugagach, kameral sharoitda olingan qiymatlar bo'yicha xisob-kitob ishlari olib boriladi. Xisob-kitob natijalarini ko'ra maxsus dasturiy ta'minot yordamida davlat geodezik punktini raqamlashtirish jarayoni olib boriladi.



3-rasm

Punktning koordinatalariga ko'ra dasruriy ta'minotda tegishli qatlamlar yaratilib olinadi va dasurning ishchi oynasi orqali natijadagi koordinatalar dobavit qilinadi. Koordinatalar



dobavit qilingach punktning raqamli xolati avtomatik tarzda koordinataga asoslangan xolda barpo qilinadi. Barpo qilingan davlat geodezik punkti maxsus raqamlar bilan shtixlanadi va ishchi xolatga keltiriladi.

Yaratilgan raqamli davlat geodezik punktiga yaratilayotgan ob'kentlarni geo bog'lash jarayonini ko'rib chiqamiz. Dala sharoitida yaratilayotgan ob'yektning maydoniga qarab o'tacha obektdan 45-50 metr atrofida navigator o'rnatilib vaqtinchalik baza yaratiladi va ob'yektni vaqtinchalik punktga bog'lash ishlari olib boriladi. Ish yakunlangach s'yomka qiymatlariga tuzatmalar kiritiladi va vaqtinchalik olingan punkt dasturiy ta'minotda barpo qilingin davlat geodezik punktiga bog'lanadi va shu tariqa ob'yektlarni raqamli punktlarga bog'lash ishlari olib boriladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tish joizki, xozirda respublikamiz xududidagi davlat geodezik punktlarining nosoz xoldaligi sababli ish jarayoni xamda sifatiga bir qancha salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari ta'mir talab bo'lib qolgan davlat geodezik punktlarini ta'mirlash uchun mablag' talab qilinadi, agarda barcha davlat geodezik punktlari raqamlashtirilsa yukoridagi keltirib utilgan salbiy oqibatlar noqulayligiga barxam bergan bo'lar edik.

### References:

1. Praktikum po geodezii. (V.V.Bakanova, Ya.Ya.Karklin, G.K.Pavlova, M.S.Cheremisin: Uchebnoye posobiye dlya vuzov) M., Nedra, 1983, 456 s.
2. Geografik axborot tizimlari fanidan darslik.
3. Internet ma'lumotlari